

NAJIMADDIN MUXAMMEDDINOVNING “GULAYIM” OPERASIDA EVROPA VA MILLIY AN’ANALAR HAMOHANGLIGI

Abatbaeva Rano Allambergenovna

*O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali “Umum kasbiy va ijtimoiy fanlar”
kafedrası katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada kompozitor Najimaddin Muxammeddinov hayoti va ijodi, turli janrlarda yaratgan asarlari shu qatorda “Gulayim” operasining Evropa va Sharq milliy an’analarining bir-biriga uyg‘unligi operada gavdalanganligi haqida, asardagi bosh qahramonlar va milliy koloritning ishlatishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: musiqa, janr, opera, uvertyura, xor, ariya, solo, skripka, kompozitor, pedagog, etno, jirau, dutar, simfoniya, poema, libretto, simfonizm, balet, oktava.



XX asr Qoraqalpoq musiqa madaniyati rivoji, jumladan, bastakorlik va kompozitorlik san’ati rivojiga o‘z hissasini qo‘shgan taniqli ijodkorlardan biri, Qoraqalpog‘iston Davlat arbobi, kompozitor va pedagog Najimmaddin Muxammeddinov nomi alohida o‘rin tutadi.

Najimmaddin Muxammeddinov 1937-yili 26-avgustda Taxtako‘pir tumanida ziyolilar oilasida tug‘ilgan. O‘rta maktabni tugatgandan so‘ng, poytaxt Toshkentda joylashgan Xamza nomidagi san’at bilim yurtiga o‘qishga kirib (1957-1961 yillari davomida) musiqa bo‘yicha ta’lim oladi. Mazkur musiqa dargohini tamomlaganidan so‘ng, 1961-yildan boshlab tug‘ilib o‘sgan ona yurtiga Nukusga qaytib, o‘sha yerning musiqa bilim yurtida skripka cholg‘usi bo‘yicha pedagogik faoliyatida birinchi qadamlarini qo‘yadi. Ammo musiqaga bo‘lgan katta ishtiyoq, o‘z ustida ishlash va professionallik bilimlarini chuqurlantirish ilinji, qolaversa, bu ajib musiqa sadolariga javoban qalbida mavj urib borayotgan yaratuvchanglik tuyg‘usi 1966-yili

Qozog‘istonning go‘zal shahri Alma-Atada joylashgan Qurmang‘azi nomidagi Qozog‘iston davlat konservatoriyasiga o‘qishga kiradi.

Najimmaddin Muxammeddinov bu musiqa oliygohini kompozitsiya bo‘yicha fakultetning yetakchi professori Yerkegali Raxmadiev qo‘l ostida o‘z bilimlarini o‘zlashtirib takomillashtiradi va 1971-yili konservatoriyaning muvaffaqiyatli tamomlagach, ona yurtiga qaytadi, Qoraqolpoq musiqa hayoti va madaniyatini rivoji va ravnaqi uchun o‘z kuchi va g‘ayratini ayamay faol mehnat qiladi. Xususan, 1986-yilga qadar kompozitor Berdaq nomidagi Qoraqalpoq filarmoniyasi tashkil topishida, so‘ng, teleradiokomitet qoshidagi xalq cholg‘ulari orkestrining bosh dirijyor sifatida ishlaydi, Qoraqalpog‘iston bastakorlari va kompozitorlari uyushmasi faoliyatini olib borishda yetakchilik qilib raislik qildi. Vaqt o‘tib, 1986-1999-yillari Madaniyat va san‘at vaziri, 1999-2005-yillari Nukus ma‘daniyat va san‘at kolleji direktori, 2005-yildan boshlab Qoraqalpog‘iston bastakorlari va kompozitorlari uyushmasining raisi sifatida o‘z faoliyatini bugungi kunga qadar olib bormoqda.

Respublikamizni madaniy hayotini rivojida faol tashkiliy ishlar va unga yuklatilgan vazifalarni olib borishiga qaramay ijodkorning nigohi markazida musiqa olami turgan. Iste’dodli kompozitor ko‘plab janrlarda samarali ijod qilib keldi, qolaversa respublikada oyoqqa turayotgan kompozitorlik san‘ati rivojiga tamal toshini qo‘ydi desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Kompozitor Qoraqalpog‘iston Davlat madhiyasi muallifi bo‘lishi bilan birga, respublikada ilk yaratilgan professional opera janri muallifi sanaladi. Najimmaddin Muxammeddinov ulug‘ shoir Ibraim Yusupovning librettosi asosida Qoraqalpoq xalqining tung‘ich operasi “Ajiniyaz” ham ijodkorning tinimsiz mehnatlarining samarasi sifatida dunyoga keldi.

N.Muxammeddinovning so‘nggi ijod pallasida xalq cholg‘ulari orkestri va simfonik orkestri uchun yaratilgan cholg‘u musiqa janrlari bilan boyitildi. O‘zbekiston mustaqilligining eng dastlabgi yillaridanoq va bugungi kunga qadar mamlakatimizda nishonlab kelayotgan ko‘plab davlat tadbirlarida, Mustaqillik va Navro‘z umumxalq bayramlarida kompozitor musiqiy asarlar tomoshalarining tashkil etuvchisi sifatida faol mehnat qilib kelmoqda va bu ulug‘ sanalarning yuqori saviyada va sifatli darajada o‘tkazilishida o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.

Kompozitor bisotida yaratilgan ikkinchi katta opera 2019-yili sahna yuzini ko‘rdi. Bu opera shoira Guliston Matyakubovaning 1995 yili nashr etilgan «Intizorlik» nomli to‘plamida o‘rin olgan «Gulayim» asari, kompozitor N.Muxammeddinovni o‘zining yorqin obrazlar doirasi bilan e’tiborini jalb qilib, adabi poydevor asosida opera yaratishga undadi. Gulistan Matyakubova librettosi asosida yaratilgan «Gulayim» (3-akt, 11-tasvir) opera voqealari XVI asr oxiri – XVII asrning boshlarida Turkistanda bo‘lib o‘tadi. Kompozitor va librettochining o‘zaro ikki yillik ijodiy hamkorligi asosida 2019 yili 5 oktyabr kuni «Gulayim» operaning ilk premyerasi bo‘lib o‘tdi. Libretto esa Qurbanbay jirau Tajibay ug‘lidan yozib olingan «Qiriq qiz» dostoni asosida yozilgan. «Gulayim»ni “etno-opera” (Najimmaddin Muxammeddinov) deyish ham mumkin, negaki avvallari operada jirau sozandalari orkestr tarkibida o‘rin olmagan. Operada jirau uch marotaba

jonli va orkestr bilan birga ijro chiqishlarini qiladi va orkestr jarangiga yaxlit quyilib o'zgacha milliy kolorit yaratishga xizmat qiladi.



“Gulayim” qahromonlik afsonasini Sharq xalqlarida juda yaxshi bilishadi. Kompozitor Najimmaddin Muxammeddinov bu asarni aynan opera janrida yaratish tashabbusi bilan nafaqat qoraqalpoq va xorazm xalqining balki, sharq xalqlari ayollar obrazini yangicha ko‘rinishida, kuchli va jangavor ruhiyatini ko‘rsatilishida ko‘zga tashlanadi. Kompozitor operada qoraqalpoq va xorazm kuyilaridan foydalangan va ularni rivojlantirish va sahna asar dramaturgiyasiga singdirish, asar davomida simfonik rivojlantirish kabi keng imkoniyatlarini ko‘rsatishga harakat qilgan. Kompozitor Najimmaddin Muxammeddinov bu asarda Qoraqalpoq milliy musiqiy qiyofasini yarata olgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ijro uslubi Evropa an‘analari asosida ya’ni, belkanto klassitsizm davri oxiri XVIII-XIX- asar simfonizmida aks etilgan, va voqiyalar ochib beriladi. Asarda Qobiz cholg‘usida bu voqiyalar qayerda va qanday bo‘layotgani haqqida hikoya etib turadi. Qobiz cholg‘usi bilan orest r hamnafas birlikda Qoraqalpoq xalqining milliyligini va simfonik orest r bilan jo‘rligi bu asarga yangilik kiritgan. Opera janriga yangilik bo‘ldi. Hozirgi davrga qadar yaratilgan operalar ichda bunday cholg‘u va Qoraqalpoq xalqining etno operasi yaratilmagan.

Opera 3-akt, 6 ta parda va 11-ko‘rinishdan: uvertyura, 6 ta ariya – 2 ta Gulayim, 1 ta Allayar, 1 ta Sarbinaz, 1 ta Surtaysha; 4 ta qizlar va 1 ta erkaklar va ayollar xori; 3 ta duet – Allayar va Gulayim, Nodirshox va Qulimbet, Gulayim va Arislan; 3 ta jirau hamda xalq kuyi “Qiz minayim”ga qizlar raqsi nomerlardan tashkil topib, tomoshabinlarga XVI asr oxiri – XVII asrning boshlarida Turkiston ro‘y bergan tarixiy voqealarning sahifalarini ochib beradi. Gulayim ismli qiz otasiga o‘z ixtiyorini bildirib, yurtini himoya qilishga borishga qaror qiladi. Qirq qizni birlashtirgan va ularni ozodlik uchun boshqargan 18 yoshli qiz (Gulayim) o‘z jasorati va yovuz kuchlarga qarshi chiqishi bilan sharq xalqlari xotirasida o‘z o‘rnini egalladi. Operada Sharq xalqlarining ayollari obraziga yangicha talqin berilgan. Ayollarining tabiatiga xos bo‘lgan noziklik, go‘zallik va joziba, vaqt-kelganda qat’iyatlik, jasorat va jangovar ruhga o‘zgarishida namoyon bo‘ldi. Operada jasorat va kurash bilan birga Xorazm va Qoraqalpoq xalqlari orasida

azaliy hamdo'stlik rishtalariga alohida urg'u berilgan va sahnaviy asarning syujetida o'rin olgan turli voqealari orqali yoritib berilgan.



Opera Evropa an'analariga xos orkestrda ijro qilingani bilan "solo" ya'ni yakka ijroda cholingan qobiz va dutor asbobida tinglovchilarga milliy kayfiyat bag'ishladi. Operaga qobiz va dutor cholg'u asboblarni qo'shgani kompozitorning mofaqiyati va yangiligi, bunday holat opera tarixida shu vaqtga qadar hech bir joyda uchramagan. Operaning milliyligi uvertyuradagi nozik ohanglarda "Dembermes" qoraqalpoq xalq kuyidan boshlanib pardaning jirau (tolg'au) to'lqinlanib ijro etishi bilan ochilishi, sahnadagi voqiyalar qoraqalpoq xalqining oldingi zamonlarda bo'lib o'tganligini isbotlaydi. Uning ko'rinishlar orasidagi ijrolaridan jirauning hozirgi teleko'rsatuvlar va ayrim katta kontsertlardagi boshlavchi vazifasida turishi juda o'rinli bo'lgan deb o'ylayman.

Operadagi Gulayim bilan Arislan obrazlarining muhabbati, suyinish asosiy simfonik orkestrning ko'tarinki kuylari, baletdagi raqsga tushayotgan qizlarning jilosi o'yinlarida aks etgan. Libretto avtorlari Gulistan Matyakubova voqiyalarga asosiy qatnashuvchilar sifatida Begzada- Gulayimning yangasi, Suyin- Allayar boyning cho'poni, Sayeke- biy bolasi, Maston kampir, Karvonboshlariga biroz o'rin bergan bo'lsa, kompozitor ayrim ko'rinishlarni olib tashlagan, baqshi va jiraudan boshqa sakkiz personajgagina atab partiyalar yozib, operani ancha ixchamlashtirgan, qahramonlar obrazlarini ochishga yordamchi qatnashchilarning so'zlarini asar sahnalardagi xorlarga jamlashtirgan.

Evropa an'analaridan va G'arb-Sharq an'analaridan foydalanilgan. Yevropa an'analariga uvertyura, ariya, xor, v.h.lar. G'arb-Sharq an'analartdan russ musiqasida Glinkaning "Ruslan va Lyudmila" operasi an'analari asosida yaratilgan, chunki, "Ruslan va Lyudmila" asarida ham asar boshida hikoya qiluvchi va asar voqiyalarini so'zlab turuvchi shaxs obrazlari uxshaydi. Glinka ijodidan boshlab, hikoya qiluvchi va asar voqiyalarini so'zlab turuvchi shaxs obraz qo'llana boshlagan. Glinkadan keyin Musorgskiy, Borodin epos afsonaga asoslangan antik mifalogik qahramonaviy turari paydo bo'ldi. Bu "Gulayim" operada xalq hayoti Xorazm va Qoraqalpoq xalqining hamdo'stligini voqiyalar orqali ifoda etib berilgan. Asarda xorazm va Qoraqalpoq xalq kuylaridan juda chiroyli mahorat bilan ko'rsata bilgan. Bu kompozitorning tajribasi va bilimlarining samarsidir, mana shu so'zimizning dalili sifatida Jahon musiqa san'atida

J.Verdi 80 yoshida “Otello” operasini yozgan bo‘lsa qoraqalpoq musiqasining gultoiji Najimaddin Muxammeddinov 82 yoshida “Gulayim” operasini yozishga muyassar bo‘ldi. Bu asarni ajoyib publitsist va taniqli qoraqalpoq shoirasi Guliston Matyakubova tomonidan o‘z vaqtida, qoraqalpoq doston san’atining mohir ijrochisi, Qurbanbay jirau Tajibay o‘g‘li tomonidan ijro qilingan «Qiriq qiz» dostonining varianti asosida «Gulayim» operasi uchun libretto yaratdi. Ma’lum bo‘lishicha «Qiriq qiz» dostonining sahnaviy talqinga taniqli qoraqalpoq shoir Amet Shamuratov ham qo‘l urgan va 1950 yilda ko‘p aktlik «Qiriq qiz» musiqali dramasini yaratadi. Keyinchalik mazkur asar «Qoraqalpoq adabiyoti va san’ati» (hozirgi «Amudaryo») jurnalida nashr yuzini ko‘rdi.

Najimmaddin Muxammeddinov Xorazm va Qoraqalpoq xalqlarini musiqiy tavsifida aynan mazkur xalqlarining boy va rango-rang folkloriga mansub kuylaridan mahoratli foydalangan. Ular qayta ishlangan ko‘rinishda, simfonik musiqaning ifoda vositalari va badiiy tili yordamida rivojlantirilib, sahna asarining dramaturgiyasiga tabiiy ravishda singdirilib asarning badiiy yutug‘ini ochib bergan. Kompozitor kuylari asosida sirlangan keng musiqiy-ifodaviy imkoniyatlarini ochib berishga muvaffaq bo‘lgan. Kompozitor tomonidan aynan xalq doston san’atining yorqin vakili – jirau obrazini yaratishda milliy ijro an’analariga murojaat qilishi e’tiborga molik. Qobiz va dutor cholg‘ularining sadolari qoraqalpoq xalqining milliy ruhiyatini namoyish etishda, asarning janr belgisini yoritishda asos qilib berilgan. O‘z navbatida bunday talqin kompozitorlik uslubini yangi ifodaviy vositalari qo‘llanishini namoyon qilib, mualliflik ijodiy uslubini o‘zga qirralarini ochilishiga xizmat qilganini ko‘ramiz. Qobiz cholg‘usiga asarni makon va davri – voqealar sodir bo‘lgan joy, qaerda va qay tarzda ro‘y bergani haqida bayon qilish vazifasi yuklangan.

Operani premerasida Gulayim obrazini birinchi talqinchisi Toshkent Davlat madaniyat va san’at instituti Nukus Filiali talabasi Mexriban Jiemuratova ilk bor sahnaga chiqdi va bu yosh san’atkor uchun o‘ta mas’uliyatli partiyaga aylandi. Ko‘pincha operaning asosiy qahramonlari rejissyorlar tomonidan ko‘zga ko‘ringan, tajriba ega bo‘lgan artist xonandalari jalb qilinadi. Gulayim yoshiga monand yosh san’atkor qizni taklif qilish rejissyor tomonidan ma’lum ma’noda botirlik ham edi. Bosh qahramon ariyasidagi tessitura va ovoz diapazonining kengligi (uchinchi oktavadagi «do» va «re» notalarini qiynalmasdan ijro qilishi) bundan dalolat beradi. Ammo Mexriban Jiemuratova ijodiy sezgirliги bilan unga yuklangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirdi. Botir qizning sahnadagi chaqqon harakatlari, shu bilan birga unga yuklatilgan murakkab ijrochilik nuqtai nazardan ariyalarni mahorat bilan talqin qilishini tomoshabinlar guvohi bo‘ldi.

Opera Evropa an’analariga xos orkestrda ijro qilingani bilan “solo” ya’ni yakka ijrodagi qobiz va dutor cholg‘usida tinglovchilarga milliy ruh, va o‘zgacha kayfiyat bag‘ishladi. Operaning milliyligi uvertyuradagi nozik ohanglarda “Dembermes” xalq qo‘shig‘idan boshlanib, pardaning jirau (tolgawi) to‘lqinlanib ijro qilinishi bilan ochilishi sahnadagi voqealar tarixni gavdalandiradi.

Operadagi bosh qahramonlar Gulayim va Arislonning muhabbati, simfonik orkestrning ko‘tarinki ruhdagi ohanglari, raqsga tushayotgan qizlarning nozik harakatlari

orqali asarning milliyligini ifodalaydi. “Gulayim” operasi o‘z ichiga milliy, tarixiy urf-odatlarini jamlagan musiqiy sahnaviy asar sifatida qoraqalpoq milliy operasining o‘z yo‘lini belgilashda kerakli qadamlaridan biri deb aytish mumkin.

Ta’kidlab o‘tish joiz, Berdaq nomidagi teatrga “akademik” unvoni berilishida kompozitorning mana shu kabi operalari teatr sahnasida qo‘yilishi muhim o‘rin tutgan. Qolaversa, akademik unvoniga ega bo‘lgan teatr har qanday janrga mansub musiqali asarlarni sahnalashtirish imkoniyati va salohiyatiga ega, degan ma’noni bildiradi. Izlanuvchan kompozitor ijodiy faoliyati davomida O‘zbekiston Qahramoni I.Yusupov, T.Qabulov, X.Davletnazarov, G.Davletova, A.Uteniyazova, I.Mirzo, J.Jabborov kabi ko‘plab taniqli shoirlar bilan birga ishladi. Musiqa “so‘z — ohang — ijro” uchligini birlashtira olgan noyob san’atdir. N.Muhammeddinov tom ma’noda so‘zga jon, tillarga zabon bera olgan ijodkor sanaladi.

Kompozitor ijodining yana bir gultoji — bu Qoraqalpog‘iston Respublikasining Davlat madhiyasi bo‘ldi. Muxtasar aytganda, N.Muhammeddinovning “Gulla, yashna, O‘zbekistonim!” simfonik poemasi, “Guloyim” operasi uchun yozilgan musiqiy kompozitsiyalari O‘zbekiston Respublikasining san’at va me’morchilik sohasida davlat mukofotiga tavsiya qilinib kompozitorning boy va sarmazmun ijodi yuksak e’tirofga sazovor bo‘ldi.

Najimaddin Muxammeddinov Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madhiyasining muallifi, qoraqalpoq xalqining to‘ng‘ich operasining, to‘ng‘ich baletining, to‘g‘ich simfoniyasining muallifi bo‘lishi bilan birga XX asr va bugungi XXI asrda ham keng quloq yoyib, o‘z borayotgan san’atimizning ulug‘ chinori bo‘lib, shoxlarini yanada keng yoyib, baland cho‘qqilarga qarab talpinaverishida o‘z hissasini qo‘shaveradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Allambergenovna, Abatbaeva Rano. "THE MANIFESTATION OF EUROPEAN AND NATIONAL TRADITIONS IN THE OPERA" GULAYIM"." International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences 2.2 (2022): 185-187.
2. Абатбаева, Рано Алламбергеновна. "ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МУСИҚА МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНИШИДА МАШХУР БАСТАТОР Н. МУҲАММЕДДИНОВНИНГ ЎРНИ." Oriental Art and Culture 3.1 (2022): 648-653.
3. АБАТБАЕВА, Рано. "КОМПОЗИТОР НАЖИМАДДИН МУҲАММЕДДИНОВ ИЖОДИДА ТАРИХИЙ СИЙМОЛАР." Journal of Culture and Art 1.1 (2023): 60-66.
4. Адамбаева.Т “Қарақалпақ музыкасынын тарийхынан» Нокис “Қарақалпақстан”-1985. Б. 45, 139
5. Матякупова.Г “ Қарақалпақ саз дунясынын сардары” Билим-2022